

CRR  
JOURNAL  
OF CARDIORESPIRATORY RESEARCH

ISSN 2181-0974  
DOI 10.26739/2181-0974



Journal of  
**CARDIORESPIRATORY**  
**RESEARCH**

Special Issue 1.1



**Xalmetova F.I., Axmedov X.S.**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Toshkent, O'zbekiston

## **REAKTIV ARTRITDA RENTGENOLOGIK KO'RSATKICHLARNING O'ZIGA XOSLIGI (RETROSPEKTIV TAHLIL)**



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974-2022-SI-1-1>

**Dolzarbligi.** Hozirgi kunda reaktiv artritda (ReA) bo'g'imdagi rentgenologik tekshiruvda aniqlangan o'zgarishlarni tahlil qilish orqali undagi struktur buzilishlarga baho berish mumkin. Kasallikning kechishi yoki shakliga ko'ra rentgenologik o'zgarishlar dinamikasini uyg'unlashuvi yoki avjlanishi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish bo'g'im sindromi, undagi yuzaga kelayotgan anatomik o'zgarishlarni o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi.

**Tadqiqotning maqsadi.** ReA ga chalingan bemorlarda struktur o'zgarishlarni rentgenologik tekshiruv yordamida baholash.

**Tadqiqotning materiallari va usullari.** Tadqiqotda ReA chalingan 278 nafar bemorlarning tizza bo'g'imi rentgenogrammalari retrospektiv tahlil qilindi. Rentgenogrammasi o'rganilgan bemorlarning umumiy o'rtacha yoshi  $38,1 \pm 11,2$  yilni tashkil qilib, kasallik o'rtacha  $4,5 \pm 1,9$  yil davomiylikka ega bo'lgan. Rentgenogrammalarning 190 donasi ReAning urogenital shakli va 88 donasi postenterokolitik shaklidagi bemorlarga tegishli bo'lgan.

**Tadqiqotning natijalari.** Tizza bo'g'imi rentgenogrammasida deyarli barcha bemorlarda, ya'ni 97,1% holatlarda epifizar osteoporoz kuzatilgan. 37,4% holatlarda osteo-naqshlanish, ya'ni eroziv artrit aniqlangan va 21,9% bemorlarda kistozli o'zgarishlar yuzaga kelgan. O'z navbatida, ReAga chalingan bemorlarning 1/3 ulushida ikkilamchi osteoartrit aniqlangan. Bunda 39,9% holatda osteoskleroz va 24,1% bemorlarda osteofitoz kuzatilgan. Shu bilan bir qatorda, ReAga xos bo'lgan belgilardan biri periostit 92,8% bemorlarda uchragan. Shu aniqlangan rentgenologik o'zgarishlarning kasallik shakliga ko'ra taqsimlanishini tahlil qilish ular orasida farqliklar borligidan dalolat berdi. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, rentgenologik belgilardan biri bo'lgan periostit uchrash darajasi bo'yicha ikkala guruh o'rtasida farqlik kuzatilmagan. O'z navbatida, ReAning postenterokolitik shaklidagi bemorlarga nisbatan urogenital shaklida eroziv artrit ko'proq uchragan (47,9%,  $r < 0,05$ ). Bundan tashqari, urogenital shaklda bemorlarning deyarli yarmida ikkilamchi osteoartrit (49,5%,  $r < 0,05$ ) kuzatilgan. Qolaversa, osteokistoz ham postenterokolitik shaklga nisbatan urogenital shaklda ko'proq aniqlanib, 29,5% ni ( $r < 0,05$ ) tashkil qilgan. Shunday qilib, kasallikning kechishi yoki shakliga ko'ra rentgenologik o'zgarishlar dinamikasini uyg'unlashuvi yoki avjlanishi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish bo'g'im sindromi, undagi yuzaga kelayotgan anatomik o'zgarishlarni o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi.

